

**INFORMATIKA VA AT FANINI O'QITISHDA AXBOROT-ANALITIK  
KOMPETENTSIYASINI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

*(Ichki ishlar vazirligi akademik litseylari misolida)*

Allamberganova G.X. - O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Vazirligi Qoraqalpoq akademik  
litseyi o'qituvchisi

**ФОРМИРОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННО-АНАЛИТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В  
ПРЕПОДАВАНИИ ИНФОРМАТИКИ И ИТ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА**

*(на примере академических лицеев Министерства внутренних дел)*

Алламбергенова Г.Х. - преподаватель Каракалпакского академического лицея Министерства  
внутренних дел Республики Узбекистан

**THE FORMATION OF INFORMATION AND ANALYTICAL COMPETENCE IN  
TEACHING INFORMATICS AND IT AS A PEDAGOGICAL PROBLEM**

*(using the example of academic lyceums of the Ministry of Internal Affairs)*

Allamberganova G.Kh. - teacher of the Karakalpak Academic Lyceum of the Ministry of Internal  
Affairs of the Republic of Uzbekistan

**Annotatsiya.** Maqolada ichki ishlar organlari tizimi uchun kadrlar tayyorlashning boshlang'ich bo'g'ini hisoblangan akademik litseylarda Informatika va IT fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning axborot-analitik kompetentligini shakllantirish masalalari ko'rib chiqiladi. Axborotlashgan jamiyat sharoitida ma'lumotlarni izlash, tanlash, qayta ishlash, tahlil qilish va ular asosida asoslangan qarorlar qabul qilish ko'nikmalarining mazmuni ochib beriladi. Muallif tomonidan mazkur kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar, interfaol metodlar, raqamli vositalar hamda kasbiy yo'naltirilgan topshiriqlarning o'rni asoslab beriladi.

**Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы формирования информационно-аналитической компетентности учащихся в процессе преподавания предмета "Информатика и ИТ" в академических лицеях, являющихся начальным звеном подготовки кадров для системы органов внутренних дел. Раскрывается содержание навыков поиска, отбора, обработки, анализа информации и принятия на их основе обоснованных решений в условиях информационного общества. Автором обосновывается роль педагогических условий, интерактивных методов, цифровых средств и профессионально-ориентированных заданий, служащих развитию данной компетенции.

**Abstract.** The article examines the issues of forming students' information and analytical competence in the process of teaching the subject "Computer Science and IT" in academic lyceums, which are the initial link in training personnel for the internal affairs system. The content of skills in searching, selecting, processing, analyzing information, and making informed decisions based on them in the context of an information society is revealed. The author substantiates the role of pedagogical conditions, interactive methods, digital tools, and professionally-oriented tasks that serve to develop this competence.

**Kalit so'zlar:** kompetensiyaviy yondashuv, axborot-analitik faoliyat, raqamli savodxonlik, kasbiy kompetentlik, muammoli ta'lim, loyiha metodi.

**Ключевые слова:** компетентностный подход, информационно-аналитическая деятельность, цифровая грамотность, профессиональная компетентность, проблемное обучение, проектный метод.

**Keywords:** competency-based approach, information-analytical activity, digital literacy, professional competence, problem-based learning, project method.

**Kirish.** Raqamli transformatsiya jarayonlari barcha sohalarida bo'lgani kabi huquqni muhofaza qilish tizimida ham mutlaqo yangi ish uslublarini shakllantirmoqda. Zamonaviy xodim katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlaydi, ularni tezkor baholaydi, tahlil qiladi va vaziyatga mos ravishda qaror qabul qiladi. Bunday faoliyat esa axborot-analitik tafakkurni talab etadi.

Bo'lajak mutaxassisning mazkur sifatleri oliy ta'lim muassasasiga kelgunga qadar shakllana boshlashi zarur. Shu ma'noda akademik litseylar nafaqat umumta'lim, balki kasbiy yo'naltirish vazifasini ham bajaradi. Informatika va axborot texnologiyalari (AT) fani o'quvchilarning axborot bilan ishlash madaniyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarga ega.

Informatika va AT fani mazkur jarayonda tayanch fanlardan biri bo'lib, o'quvchilarda axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, mavjud o'qitish metodikasi ko'pincha texnik ko'nikmalar bilan cheklanib qolmoqda. Axborotni analitik qayta ishlash, ma'lumotlardan kasbiy vaziyatlarda foydalanish yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan.

Axborot-analitik kompetensiya – bu shaxsning axborotni mustaqil izlash, tanqidiy baholash, tizimlashtirish, tahlil qilish va natijalarni amaliy faoliyatda qo'llay olish qobiliyatidir. U quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: axborotga bo'lgan ehtiyojni aniqlash, ishonchli manbalarni topish, ma'lumotlarni solishtirish va filtrlash, mantiqiy xulosalar chiqarish, natijalarni taqdim eta olish.

Ichki ishlar tizimi uchun bu kompetensiya ayniqsa dolzarb bo'lib, tezkor vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishning asosini tashkil etadi.

Ichki ishlar vazirligi tizimidagi litseylar kelajak kasbiga yo'naltirilgan muhitga ega. Intizom, tezkorlik, aniqlik kabi talablar o'quv jarayoniga ham tatbiq etiladi. Demak, Informatika va AT fanini o'qitish jarayonida beriladigan topshiriqlar ham shu mezonlarga mos bo'lishi lozim.

O'quvchilarni oddiy matn terishga emas, balki, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash, prognoz qilish, xulosalarni asoslash kabi faoliyatlarga jalb etish muhim.

Mazkur kompetensiya integrativ xususiyatga ega bo'lib, quyidagi komponentlarni birlashtiradi:

- kognitiv – axborot jarayonlari haqidagi bilimlar;
- operatsion – ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmalari;
- motivatsion – axborotni tahlil qilishga ehtiyoj;
- refleksiv – o'z faoliyatini baholash va takomillashtirish.

Bu komponentlar o'zaro uyg'un holda rivojlangandagina o'quvchi real vaziyatda samarali faoliyat yurita oladi.

Uzluksiz ta'limning O'rta maxsus ta'limning davlat ta'lim standarti asosida Informatika va AT fani doirasida nazariy, amaliy va mustaqil mashg'ulotlar orqali bilimga ega bo'lish bilan birga umumiy, shuningdek, axborot-analitik kompetentsiyaga ega bo'lishi belgilab berilgan.

Quyida ichki ishlar vazirligi Qoraqalpoq akademik litseyida ijtimoiy-gumanitar fanlar ta'lim yo'nalishining Informatika va AT fanini o'qitishda axborot-analitik kompetentsiyasini shakllantirishi lozim bo'lgan talablar xususida to'xtalamiz.

Kompetensiyaviy yondashuv, axborot madaniyati va raqamli savodxonlikni shakllantirish masalalari ko'plab pedagog va tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Ular ta'lim natijasi sifatida bilim emas, balki amaliy faoliyatga tayyorlik ustuvor ekanligini ta'kidlaydilar. Biroq ichki ishlar tizimiga ixtisoslashgan o'quv muassasalarida aynan axborot-analitik kompetensiyani shakllantirish mexanizmlari yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Akademik litseylarda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, kasbiy qiziqishlarining endigina shakllanayotganligi, shuningdek, o'quv dasturlarining ko'proq nazariy yo'naltirilganligi mazkur kompetensiyani rivojlantirishda qator qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Tadqiqot davomida qo'ydagi asosiy muammolar aniqlandi:

1. Axborotni tahlil qilishga qaratilgan amaliy topshiriqlarning kamligi;
2. Real kasbiy vaziyatlarga yaqinlashtirilgan mashg'ulotlarning yetishmasligi;
3. O'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rag'batlantiruvchi metodlarning sust qo'llanishi.
4. O'quvchilarning mustaqil izlanishlar kamligi.
5. Baholash tizimi ko'proq tayyor natijaga qaratilgan.

Natijada o'quvchi dasturdan foydalanishni biladi, ammo undan tahliliy vosita sifatida foydalana olmaydi.

Axborot-analitik kompetensiyani rivojlantirish uchun o'qitish jarayoniga quyidagi yondashuvlarni tatbiq etish maqsadga muvofiq:

**1. Kasbiy yo'naltirilgan topshiriqlar:** Huquqbuzarlik statistikasi, ijtimoiy jarayonlar yoki shartli tezkor vaziyatlarga oid ma'lumotlar bilan ishlash o'quvchilarda kelajak kasbiga nisbatan motivatsiyani oshiradi.

**2. Muammoli ta'lim texnologiyalari:** O'quvchilar oldiga aniq vaziyat qo'yilib, ularni ma'lumotlarni izlash va tahlil qilish orqali yechim topishga yo'naltirish yuqori natija beradi.

**3. Raqamli vositalardan foydalanish:** Jadval protsessorlari, ma'lumotlar bazalari, vizualizatsiya dasturlari axborotni chuqurroq anglash imkonini yaratadi. Shuningdek, elektron resurslar, simulyatsiyalar, ma'lumotlar bazalari bilan ishlash tahliliy tafakkurni rag'batlantiradi.

**4. Jamoaviy va loyiha faoliyati:** Guruhda ishlash jarayonida o'quvchilar axborotni taqsimlash, muhokama qilish va umumiy xulosa chiqarishni o'rganadilar.

Informatika va AT fanini o'qitish metodikasida taklif etilayotgan model quyidagi bosqichlardan iborat:

1. motivatsiya va muammo qo'yish;
2. axborotni izlash;
3. qayta ishlash va tahlil;
4. natijani taqdim etish;
5. refleksiya.

Bu jarayon o'quvchini passiv tinglovchidan faol tadqiqotchiga aylantiradi.

Amaliy mashg'ulotlarga namunalar keltirib o'tamiz.

- jinoyatchilik statistikasi asosida diagrammalar tuzish;
- shartli ma'lumotlar bazasidan zarur ma'lumotni ajratish;
- turli manbalarni taqqoslab ishonchliligini baholash;
- vaziyat bo'yicha analitik hisobot tayyorlash.

Sinov mashg'ulotlari shuni ko'rsatdiki, tizimli ravishda muammoli va tahliliy topshiriqlar qo'llanilganda o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, axborotni saralashi va xulosa chiqarish tezligi sezilarli oshadi. Ular o'z nuqtai nazarini dalillar bilan himoya qila boshlaydilar.

Mazkur yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni natijasida o'quvchilar qo'yidagi natijalarga erishdi: mustaqil tarzda zarur axborotlarni qidiradi, ma'lumotlarning ishonchliligini baholab biladi, tahliliy fikrlay oladi, qaror qabul qilish ko'nikmalari nisbatan rivojlanadi.

Bu esa keyingi bosqichlarda kasbiy ta'limni muvaffaqiyatli egallash uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

O'qitish jarayonida shakllangan axborot-analitik kompetensiya o'quvchilarning boshqa fanlarni o'zlashtirishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa huquqiy fanlarda vaziyatni tahlil qilish, dalillarni solishtirish jarayoni ancha osonlashadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, akademik litseylarda Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda axborot-analitik kompetensiyani shakllantirish – ichki ishlar organlari uchun raqobatbardosh, mustaqil fikrlay oladigan kadrlarni tayyorlashning muhim omilidir. Mazkur yo'nalishda o'quv jarayonini kasbiy mazmun bilan boyitish, interfaol va muammoli metodlarni keng qo'llash, raqamli ta'lim muhitini takomillashtirish zarur.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахаян, А.А. Структура, диагностика и средства развития информационной компетентности учащихся: научно-методические материалы [Текст]/ А. А. Ахаян. – СПб.: Книжный Дом, 2008. – 144 с
2. Омельченко В.И. Использование средств и методов смешанного обучения в методической системе развития информационно-аналитической компетентности будущего специалиста / В.И. Омельченко, Л.А. Усольцева // Информатика и образование. – 2010. – № 9. – С. 113-116.
3. Трофимец Е.Н. Информационно-аналитические технологии обучения менеджеров в образовательных учреждениях России и за рубежом / Е. Н. Трофимец [Электронный ресурс]. – URL: [http://www.ido.rudn.ru/ vestnik/2010/2010\\_1/14.pdf](http://www.ido.rudn.ru/ vestnik/2010/2010_1/14.pdf).
4. Яковенко Н.В., Комов И.В. Информационно-аналитическая компетентность как профессиональный компонент подготовки экологов-инженеров в условиях педагогического ВУ- 275 ЗА // Вестник Воронежского государственного университета. Серия: География. Геоэкология. 2016. № 1. С. 75–79.
5. Рыжова Н.И., Фомин В.И. Структура информационно-аналитической компетентности специалиста экономического профиля на основе модели развития содержания обучения //Известия Самарского научного центра Российской академии наук [Электронный ресурс]. – 2009. №4(2). Режим доступа: [http://www.ssc.smr.ru/media/journals/izvestia/ 2009\\_4\\_358\\_361.p](http://www.ssc.smr.ru/media/journals/izvestia/ 2009_4_358_361.p)
6. Ilyasova, Z.K. Advantages of using electronic educational resources in teaching computer science and information technology. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, (2025). 5(1), 440–443.
7. Ilyasova Z. Problems of teaching informatics in pedagogical universities //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – Т. 7. – №. 9.